

NEKROBAKTERIOZ KASALLIGINING ETIOLOGIYASI, DAVOLASH USULLARI VA PROFILAKTIKASI

Safarov Madadjon Begmurod o'g'li

Abbosov Nurali Nosirovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali*

safarovmadad@gmail.com <https://orcid.org/0009-0000-0875-2897>

Anotatsiya: Ushbu maqolada chorvachilikga katta zarar berayotgan nekrobakterioz kasalligining etiologiyasi, patogenezi, tarqalishi, klinik belgilari, diagnostika usullari, davolash va oldini olish bo'yicha tavsiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Anotation: This article provides information on the etiology, pathogenesis, spread, clinical signs, diagnostic methods, recommendations for treatment and prevention of necrobacteriosis, a disease that causes great damage to livestock.

Аннотация: В статье представлены сведения об этиологии, патогенезе, распространении, клинических признаках, методах диагностики, рекомендации по лечению и профилактике некробактериоза – заболевания, наносящего большой ущерб животноводству.

Kalit so'zlar: Nekrobakterioz, spora, kapsula, etiologiya, patogenez, vaksina, dezinfeksiya, desmurgiya.

Kirish: Chorvachilik tarmog'ining rivojlanishi ko'p jihatdan chorva mollarining zotiga, mahsuldorligiga, eng muhimi sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bugungi kunda veterinariya xodimlariga yangi vazifalar qo'yilmoqda, ya'ni ular qishloq xo'jaligi hayvonlaridagi turli kasalliklarni davolash va oldini olishda qo'llanilmoqda. Yangi dori vositalarini qo'llash va patologik jarayonlarni normallashtirishda yangi, zamonaviy usul va vositalardan foydalanishni talab qiladi. Adabiyot ma'lumotlari va shaxsiy kuzatishlar tahlilidan ma'lumki, qoramollar orasida yuqumsiz kasalliklarning salmog'i yuqori (66-88%), ulardan tuyoq kasalliklari 10-20% ni tashkil qiladi. Tuyoq kasalliklaridan keladigan zarar tufayli 70-80% mahsuldorlik ko'rsatkichlari kamayadi. Bundan tashqari, jarohatlar natijasida organizmning infeksiyaga chidamliligi pasayadi, natijasida yuqumli va invazion kasalliklarga tez chalinadi. Tuyoqning



2-TOM, 2 - SON

shikastlanishi natijasida nasldor buqalar nobud bo'ladi, ular tezda go'shtga topshiriladi. Bularning barchasi iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nekrobakteriozning iqtisodiy zarari katta. Kasal hayvonlar vaznini yo'qotadi, o'lim darajasi 70-75% ga yetadi. Sog'in sigirlarning suti keskin kamayadi. Davolash va oldini olish katta miqdordagi mablag'ni talab qiladi. Kasallik barcha turdagi hayvonlarga, shu jumladan qoramollarga ta'sir qiladi. Barcha yoshdagi hayvonlar, asosan yosh hayvonlar ko'proq kasallanadi. Buning asosiy sababi yosh hayvonlarning terisi yupqa va bo'sh, shuning uchun ular shikastlanishga moyil bo'ladi. Qo'zg'atuvchining miqdori va virulentligi katta ahamiyatga ega. Kasallikning tarqalish manbai kasal va kasallikdan tuzalgan hayvonlardir. Kasallikning qo'zg'atuvchisi kavsh qaytaruvchi hayvonlar, yovvoyi hayvonlar, kemiruvchilar, qushlarning oshqozon-ichak yo'llarida yashaydi va tashqi muhitda (chorvachilik binolari, pichan o'ramlari, go'ng, tuproq, yaylovlar, suv havzalari) keng tarqaladi. Kasallik yilning yomg'irli oylarida, ya'ni kech kuzda, qishda va erta bahorda rivojlanadi. Sog'lom to'qimalar qon va kislorod bilan yaxshi ta'minlanganligi sababli ularda bu bakteriyalar rivojlanmaydi. Zararlangan to'qimalarning qon orqali kislorod bilan ta'minlanishi buzilganligi sababli bakteriya anaerob muhitda juda tez rivojlanadi. Ko'payish jarayonida ular zaharli moddalar chiqaradi, sog'lom hujayralarni zararlaydi va o'sha joyda kuchli yallig'lanish boshlanadi. Hujayralardan chiqarilgan fermentlar bu jarayonning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Qo'zg'atuvchi qonga kirib septik jarayonga olib keladi. Kasal hayvon qo'zg'atuvchisi ichki organlarga tarqalishi tufayli ulardagi nekroz jarayonlarining rivojlanishi natijasida nobud bo'ladi. Hayvon oyog'iga tushgan mikroorganizmlar yiringli ekssudat hosil qiladi hamda tuproq, loy va boshqa aralashmalar tufayli bu joyda qoplama hosil bo'ladi va anaerob muhit yaratiladi. Bunday sharoitda bakteriyalar osongina o'sishi va rivojlanishi mumkin.

Matirial va metodlar. Nekrobakterioz kasalligini kelib chiqish sababi, davolash va profilaktikasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, Toshkent viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi, Toshkent viloyati hayvon kasalliklari diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazi, chorva fermer xo'jaliklarida o'rganildi. Tuman veterinariya bo'limi mutaxasislari yordami bilan olingan ma'lumotlar asosida tumanda veterinariya tizimining xizmatini tashkil etish va uning nazorati, tuman profilaktik, epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasi, tumanda epizootik holat va epizootik xaritalar o'rganildi. Hududda mavjud majburiy so'yilgan hayvonlar



2-TOM, 2 - SON

gavdasi veterinariya laboratoriyasining bakteriologik bo'limida mikrobiologik tekshiriladi. Laboratoriya mutaxassislari bilan birgalikda mikroskopik, bakteriologik, biosinov qo'yish usullarini qo'lladik. Fermer xo'jaliklarida mavjud tuyoq kasalliklari tahlil qilinib xo'jaliklardagi kasallanish holati o'rganildi davolash va profilaktika tadbirlari bajarildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Kasallangan hayvonlar sog'lom hayvonlardan alohida ajratilib, yakka va guruhli davolanadi. Jarohat hayvonning oyog'ida bo'lsa, oyog'idagi o'lik to'qimalar va yiringlar kimyoviy vositalar bilan (1% kaliy permanganat, 3-5% mis sulfat, 1% tripoflavinning spirtidagi eritmasi) yuvub tozalanadi, davolash maqsadida ASD-3 preparati qo'llanildi qo'zg'atuvchiga ta'sir qilish maqsadida antibiotikli malhamlardan qo'llanildi. Hayvon tuyog'idagi jarohat jiddiy bo'lganda, tarkibida 3-5% formalin, 2-3% kreolin, 2-3% rux va mis sulfat bo'lgan dezinfeksiyalovchi vannalardan o'tkazish yaxshi samara berdi. Antibiotik terapiya qilindi. Mushak ichiga 4 mg/kg dan 3 kun davomida yuborildi. Jarohat og'iz bo'shlig'ining shilliq qavatida joylashgan bo'lsa, uni davolash uchun 3-5% rux, mis sulfat eritmalari, 5% yod, 1% kaliy permanganat eritmasi qo'llanildi. Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan preparatlardan tashqari yod-glitserin, sintomitsin, biomitsin yoki boshqa antibiotikli malham surtish yaxshi samara berdi. jarohat ochiq, bog'lamsiz davolandi

Jahon tajribasidan ma'lum bo'lishicha Rossiyalik olimlar (A.A. Sidorchuk va boshq.) tomonidan organizmda faol immunitet hosil qilish maqsadida yaratilgan qoramol nekrobakterioziga qarshi inaktivatsiyalangan Nekovak vaktsinasi bugungi kunda profilaktika uchun eng yaxshi samarali vositadir. Immunitet 15-20 kun ichida shakllanadi va 6 oy davom etadi. Epizootik vaziyatga qarab, revaktsinatsiya 6 oydan keyin amalga oshiriladi. Hayvonlar saqlanadigan binolar, go'ng va 3-5% formalindan tozalanadi, 5-10% issiq kaustik soda yoki 5% faol xlor ohaki bilan 1m²/10 l miqdorida dezinfektsiya qilinadi. Xo'jalikda qoramollar orasida nekrobakterioz aniqlanganda kasallikni davolash va oldini olish uchun maxsus dizabarlar tashkil etiladi, bu yerda 1-hovuz oddiy suv, 2-hovuz 3-5% mis sulfat, 3-hovuz 2-3% kreolin eritmalari ishlatiladi

Amaliyot uchun tavsiyalar: Nekrobakterioz kasalligi hozirgi kunda ko'plab naslchilik va bo'rdoqichilik xo'jaliklarida uchraydi, sut mahsuldorligi keskin kamayib, hayvonlarning vazni sezilarli darajada kamayishi bilan katta iqtisodiy zarar keltiradi. Shuning uchun har bir xo'jalikda kasallikning oldini olish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:



2-TOM, 2 - SON

- yangi olib kirilayotgan tovarlarni 1 oy davomida profilaktik karantinda saqlash;
- hayvonlarning chidamliligini yuqori darajada saqlash
- normal zoogigienik saqlash sharoitlarini yaratish;
- turli zaharlanishlar va yuqumli bo'lmagan kasalliklardan himoya qilish;
- hayvonlar saqlanadigan binolarni, kasal hayvonlar saqlanadigan joylarni go'ngdan tozalash;
- Dezinseksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlari muntazam ravishda olib borilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. P. Parmanov va boshqalar. Epizootologiya. T. 2006 y.
2. M. P. Parmonov va boshqalar. Epizootologiya. T. 2007 y.
3. X. S. Salimov, A.A.Qambarov, Epizootologiya. Samarqand. 2016 y.
4. H. Q. Rustamov va boshqalar «Operativ xirurgiya», Samarqand 1997.
5. H. B. Niyozov «umumiy va xususiy xirurgiya» Samarqand, 2015-yil.
6. Safarov, M., Jalilov, F., Abbosov, N., & Mahbuba, S. (2023, October) O'ZBEKISTON VETERINARIYA FARMATSEVTIKASIDA QO'LLANILAYOTGAN INSEKTITSIDLAR VA AKARITSIDLARNI ASOSIY TASIR ETUVCHI MODDASI BO'YICHA TAHLILI. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 10, pp. 129-130).
7. Safarov, M., Normamatov, R., Abbosov, N., & Sayfullayeva, M. (2023). ANALYSIS OF INSECTICIDES AND ACARICIDES USED IN THE TERRITORY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 26-29.
8. Salimov, Y., Jalilov, F. S., Hamzayev, K. B., & Safarov, M. B. Veterinariya farmakologiyasi" fani bo 'yicha o 'quv uslubiy majmua. *Toshkent-2022*.
9. Salimov, Y., Jalilov, F. S., Hamzayev, K. B., & Safarov, M. B. Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi" fani bo 'yicha o 'quv uslubiy majmua. *Toshkent-2022*.
10. Shapulatova, Z., Safarov, M., & Jaxongirov, S. (2022). МЕРЫ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ СИБИРСКОЙ ЯЗВЫ И БОРЬБЕ С ЭПИЗООТИЯМИ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 2(1).

